

**MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI BADIY ADABIYOT BILAN  
TANISHTIRISH USULLARI****Yusupova Jamolaxon Sotvoldiyevna**Farg'ona davlat universiteti Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim fakulteti  
magistranti<https://doi.org/10.5281/zenodo.6582357>

**Annotatsiya.** Ushbu ishning maqsadi maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar ta'lim tarbiyasida, ularni estetik jihatdan tarbiyalashda badiiy adabiyotining o'rni va ahamiyatini, shuningdek, maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar nutqining o'sishida bolalar adabiyotining o'ziga xos xususiyatlar hamda shakllarini tahlil qilishdan iboratdir.

**Kalit so'zlar:** badiiy obraz, badiiy adabiyot, xalq og'zaki ijodi, proza, illyustrasiya, axloqiy-epik, axloqiy-estetik.

**СПОСОБЫ ПОЗНАКОМИТЬ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА С  
ХУДОЖЕСТВЕННОЙ ЛИТЕРАТУРОЙ**

**Аннотация.** Целью данной работы является анализ роли и значения художественной литературы в воспитании дошкольников, их эстетическом воспитании, а также особенностей и форм детской литературы в развитии речи дошкольников.

**Ключевые слова:** художественный образ, художественная литература, фольклор, проза, иллюстрация, нравственно-эпический, нравственно-эстетический.

**METHODS OF INTRODUCING FICTION TO PRESCHOOL CHILDREN**

**Abstract.** The purpose of this work is to analyze the role and importance of fiction in the education of preschool children, their aesthetic upbringing, as well as the specific features and forms of children's literature in the development of speech in preschool children.

**Keywords:** artistic image, fiction, folklore, prose, illustration, moral-epic, moral-aesthetic.

**KIRISH**

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar bilan ishlashda badiiy so'z katta o'rin tutadi. Bolalar xalq ertaklari, she'r, hikoyalar eshitishni yaxshi ko'radilar. Bolalar adabiyoti, avvalo o'zining qiziqarli mazmuni, badiiy obrazlarining go'zalligi, tilning ifodaliligi, she'riy so'zlarning musiqaviyligi bilan bolalarga quvonch baxsh etadi. Ayni vaqtda u bolalarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatadi. Buyuk rus demokratik V.G. Belinskiy bolalar kitobi tarbiya uchun yoziladi, «Tarbiya – buyuk ish, u insonning taqdirini hal qiladi» - degan edi. Badiiy adabiyotning qimmatini bolaning har bir jihatdan o'sishiga ta'sir ko'rsatishidir. Badiiy adabiyot bolaga jonajon o'lka tabiatining kishilarning mehnati va hayotini, ularning qilayotgan ishlari va ko'rsatayotgan qahramonliklarini, bolalar hayotidan olingan voqyealar, bolalarning o'yinlari, ermaklari va qilayotgan mehnatlarini himoya qilib beradi. Kishilarning ichki dunyosini yoritib, ularning xarakterlari, his-tuyg'ulari, xatti-harakatlarini, shuningdek, tasvirlangan hodisalarga yozuvchining munosabatini ko'rsatib, badiiy adabiyot asarlari bolani hayajonlanishga, asar qahramonlariga achinishga yoki ularni qoralashga majbur qiladi. Eng yaxshi badiiy adabiyot asarlari bolalarda biror narsaga yaxshi-yomon, adolatli-adolatsiz, to'g'ri-noto'g'ri deb, o'zlariga xos bir yordam beradi.

Bolalar kitobning qiziqarli mazmuni do'stlik, halollik, mehnatsevarlik, o'rtoqlik namunalari ko'rsatadi. Bolalar badiiy adabiyot asarlari estetik jihatdan tarbiyalashga ham katta ta'sir ko'rsatadi. Badiiy asarlarning yorqin obrazlari, jonajon tabiatning shoirona manzaralari, she'rlarning musiqaviyligi, tilning o'tkirligi, ifodaliligi bolalarga yoqadi. Bolalar badiiy so'z qudratini his etadilar, uncha katta bo'lmagan ertaklar, xalq ashula hamda she'rlarini tez va osongina eslab qoladilar. Badiiy so'zga muhabbatni ilk yoshdan boshlab tarbiyalab borish zarur, bola bog'chadan maktabga ana shu muhabbat bilan o'tadi va keyinchalik Vatan adabiyotini sevadigan bo'lib qoladi. Xalq og'zaki ijodi – ertaklar, topishmoqlar, maqollar, qo'shiqlarning ko'plari uzoq o'tmishda va hozirgidan tubdan farq qiladigan voqyeligidan tubdan farq qiladigan turmush sharoitida yaratilgan xalq ijodi asarlaridan faqat tarbiya vazifalariga javob beradiganlari tanlab olinadi. Aql-idroki yoki jasurligi bilan, sabr-toqati yoki mehnati bilan har qanday qiyinchiliklarni yengadigan dovyurak, vijdonli qahramonlar ishtirok etadigan ertaklardan bolalar juda hayratlanadilar, bunday ertaklar bolalarni ijobiy qahramonlarga nihoyatda hayrixoh bo'lishga, yovuzlikka, nohaqlikka, qizg'anchiqlikka, makr-xiylaga nisbatan murosasiz bo'lishga majbur etadi.

#### **ADABIYOTLAR SHARHI**

O'zbek xalq ertaklaridan tashqari ko'pgina rus xalq va mamlakatimizdagi boshqa xalqlar ertaklari ham bolalarga o'qib beriladigan ertaklar jumlasiga kiradi. Rus mumtoz adabiyoti namoyondalaridan A.S.Pushkin, N.A. Nekrasov, L.N. Tolstoy, K.D. Ushinskiy va boshqalarning asarlari bolalarga o'qib berish dasturiga kiritilgan. O'zbek yozuvchilari, shoirlari bolalar uchun juda ko'p ajoyib asarlar yaratganlar. Bu G'.G'ulom, N. Orifjonov, I. Muslim, P. Mo'min, Sh. Sa'dulla, Q. Hikmat, Q. Muhammadiy va boshqalarning asarlari – bolalarga o'qib beriladigan asarlarning eng boy manbasi hisoblanadi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga bag'ishlangan adabiyotlar ro'yxatidan rus yozuvchilari va shoirlari: V. Mayakovskiy, A. Kononov, S.Mixalkov, A. Gaydar, K. Chukovskiy va boshqalarning tarjima qilgan asarlari keng o'rin olgan. Bu ro'yxatga chet el yozuvchilari Sh. Perro, X.K.Andersen va boshqalarning ertaklari ham kiradi. Bolalarga o'qib beriladigan asarlar doirasiga har xil janrdagi asarlar: hikoya va povestlar, proza hamda she'r shaklidagi ertaklar, dostonlar, xazil she'rlari, topishmoqlar, masallar kiradi. Tarbiyachi har bir yosh guruhida bolalarni juda ko'p bolalar badiiy adabiyoti asarlari bilan tanishtirib borishi lozim. Tarbiyachi bolalarda adabiy asarni idrok qilish ko'nikmasini tarkib toptiradi. Bola asarni tinglayotib, uning mazmunini o'zlashtiribgina qolmay, balki muallif tasvirlayotgan his-tuyg'ular va kayfiyalarni his etishi ham lozim. Мактабгача таълим ташкilotида asarning mazmuni va formalarini analiz qilishning ba'zi elementlari ham tarkib toptiriladi. Har bir bola maktabga o'tish paytida asarda hikoya qilangan asosiy qahramonlarni aniqlay olishi, ularga nisbatan o'z munosabatini (kimning nima uchun yoqqanini) ayta bilishi, asarning formasini aniqlay bilishi (she'r, hikoya, ertak) lozim. Bolalarda birgalashib eshitish malakalarini, uyushqoqlik bilan savollarga javob berish va o'qib berilgan asar asosida savollar berish, illyustrasiyani diqqat bilan ko'zdan kechirish, kitobga yaxshi munosabatda bo'lish ko'nikmalarini tarbiyalash zarur. Bog'cha bolalarda kitobga berilish, bilishga qiziqish, tinglangan asar haqidaga taassurotlarni o'rtoqlashish istagi va ko'nikmasini tarbiyalashi lozim.

#### **TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL**

Bolalar kitobi bolaga tushunarli bo'lgan, uning aqli va qalbiga yetib borgan, ya'ni bola yozuvchining hikoya qilayotgan narsasini tushunadi hamda his eta olgan taqdiridagina u o'zining

tarbiyaviy rolini bajaradi. Tarbiyachilar bolalarning asarlar haqidagi bilimlarini mustahkamlab borish uchun oldingi yosh guruhlarida ularning qaysi asarlar bilan tanishganlarini bilishlari kerak. Buning uchun yil boshida oldingi guruh dasturini ko'rib chiqish va takrorlash materialini belgilab olishi lozim. Tarbiyachi taqvim-reja tuzish paytida yaqin bir-ikki hafta ichida bolalarga o'qib beradigan asarlarini tavsiya ro'yxatidan belgilab oladi. Bunda u bolalarda histuyg'u va xulq-atvorni, tevarak-atrofga har xil qiziqish hamda munosabatlarni tarkib toptirishdek muhim tarbiyaning umumiy vazifalariga amal qiladi. Bolalarning qiziqqan narsalarini, ularning o'zaro munosabatlarni, o'yinlarini kuzatish yaxshi kitob tanlashga ancha yordam beradi. Har bir asarni tevarak-atrofdaga ma'lum hodisalar bilan bog'lash va o'sha vaqtdagina o'qib berish lozim, deb o'ylash noto'g'ri. Albatta, kitobdagi hodisalarga bog'liq mavzuni o'qib berish kerak. Lekin boshqa vaqtda ham bunday kitob o'qishni o'tkazish lozim. Tarbiyachi asar tanlagach, bolalarga uni qanday yetkazish lozimligini aniqlab olishi kerak. Notanish so'zlari ko'p bo'lgani uchun bolalar mazmunini tushuna olmaydigan asarni o'qimagan ma'qul.

O'tmishda tarixiy davr bilan bog'liq bo'lgan mumtoz adabiyot namoyondalarining asarlarida, masalan, A.S. Pushkin ertaklarida, xalq ertaklarida uchraydigan juda ko'p notanish so'zlarni tushuntirish kerakmi? degan savol tug'iladi. Bu so'zlar bolalarning asar mazmunini tushunib olishlariga xalaqit bermaydimi, shuning uchun ularni tushuntirmasa ham bo'ladi. Badiiy adabiyotdan foydalanadigan mashg'ulotlar g'oyat osoyishta sharoit yaratilishini talab etadi. Muhimi, xech narsa bolalarni eshitishdan chalg'itmasligi lozim. Mashg'ulotlarni tez uyushtirish, uni bolalar adabiyotiga xos sog'lom, optimistik xarakterda, xushchaqchaqlik bilan o'tkazish kerak.

### **NATIJARLAR**

Ba'zan tarbiyachi muqaddima so'zida asarning nomi, muallifning ismi, mavzuni ma'lum qiladi. Masalan, «Bugun men sizlarga o'zbek xalq ertaklaridan «Aqlli qiz qanday qilib qizg'anchiq boyni aldagani»ni o'qib beraman. Mashg'ulotni muqaddima suhbat bilan boshlash mumkin. Masalan, S.Y.Marshakning «O'n ikki oy» ertagini o'qib berishdan oldin: Tarbiyachi: Bolalar, bir yilda necha oy borligini bilasizlarmi? Bolalar yoki tarbiyachi: O'n ikki oy. Tarbiyachi: U oylar qanday ataladi? Bolalar oylar nomini aytishadi, tarbiyachi esa, zarurat bo'lsa, ularning javoblarini tuzatadi. Tarbiyachi: Bir oy tugashi bilanoq ikkinchisi boshlanadi. Hali hech qachon fevral yanvar tugamasdan kelmagan yoki may oyi aprelni quvib o'tmagan. Oylar birin-ketin kelaveradi va hych qachon bir-biri bilan uchrashmaydi. Ammo odamlar tog'lik o'lka – Begimiyada bir qiz bir vaqtning o'zida o'n ikki oyning hammasini ko'rganligi haqida hikoya qiladi. Bu qanday bo'lgan? Manna bunday .... Keyin tarbiyachi kitobdan o'qiy boshlaydi. Ertak o'qib bo'lingach, qizcha bir vaqtning o'zida birdaniga o'n ikki oyni qanday ko'rganligi, qiyin vaqtda oylar qizchaga qanday yordam berganligi va boshqalar haqida suhbat o'tkazgan ma'qul. Ayniqsa, axloqiy-estetik va bilish mazmuniga ega bo'lgan kitoblarni o'qib berishda puxta tayyorgarlik talab qilinadi.

### **XULOSA VA MUNOZARA**

Axloqiy-estetik mazmundagi kitoblar bolalarda axloqiy sifatlar, xulq-atvorning ijobiy tomonlarini tarkib toptirishga yordam beradi. Sh. Sa'dullaning «Injiq qizcha», L.N. Tolstoyning «Danak», V. Oseyevaning «Sehrlı so'z» degan asarlari va boshqalar shunday kitoblar jumlasiga kiradi. Muhimi, bolalarning kitobni eshitish jarayonidayoq uning g'oyaviy mazmunini tushunib

olishlaridir. Bunda muqaddima suhbatida katta rol o'ynaydi, tarbiyachi bunday suhbatda bolalar diqqatini eng asosiy, muhim narsalarga jalb etadi.

Masalan, maktabga tayyorlov guruhida Sh.Sa'dullaning «Injiq qiz» she'rini o'qib berishdan oldin tarbiyachi bolalarga bunday savol beradi: «Bolalar, yaxshilab o'ylang va ayting: qanday qiz haqida – yaxshi qiz va qanday qiz to'g'risida – yomon deyishadi?». Bolalarning javoblari. Tarbiyachi: Bolalar, sizlar kimning yaxshi qiz, kimning yomon qiz deyilishini to'g'ri aytinglar. Hozir men sizlarga Gulbodom degan qiz haqida yozilgan she'rni o'qib beraman. Sizlar yaxshilab eshiting va keyin menga Gulbodomni yaxshi qiz deyish mumkin-mumkin emasligini aytasiz. Bu she'r «Injiq qiz» deb ataladi. She'rni shoir Shukur Sa'dulla yozgan. Shundan so'ng tarbiyachi she'rni o'qiy boshlaydi. Axloqiy-estetik mazmundagi kitobni o'qishdan oldin o'tkaziladigan muqaddima suhbatida qisqa bo'lishi – 3-5 daqiqadan oshmasligi va albatta bolalar tajribasi bilan bog'lanishi kerak («Kimni biz yaxshi qiz deymiz?») -bu savol bolalar tajribasiga va kitob mazmuniga qaratilgan).

Axloqiy-epik mazmundagi kitoblar o'qib bo'lingandan keyin ham suhbat o'tkazishni talab etadi. Bunday suhbatlarda juda ko'p savol va tushuntirishlar bo'lmasligi lozim, chunki bolalar kitobni o'qish paytidayoq qahramonlar xatti -harakatlarining mohiyatini chuqur anglab oladilar. O'qilgan asar haqida o'tkaziladigan suhbatlarda bolalarni qahramonlarning xatti-harakatlarini to'g'ri baholashga o'rgatish va bolalarning qahramon va uning xatti-harakatlariga o'z munosabatlarini aytishlariga erishish lozim. Sh. Sa'dullaning she'rini o'qigandan so'ng o'tkaziladigan suhbatda bolalarga injiq qizning xulq-atvorini baholashga ko'maklashadigan savollar berish kerak.

Tarbiyachi: Gulbodomni yaxshi qiz deb bo'ladimi?

Bolalarning javoblari.

Tarbiyachi: Nima uchun?

Bolalarning javoblari.

Tarbiyachi: Siz bunday qiz bilan do'st bo'lishni istarmidingiz? Nega?

Bolalarning javoblari.

Tarbiyachi: Gulbodomni uchratsangiz unga nima degan bo'lar edingiz? Bolalarning javoblari.

Tarbiyachi: Gulbodomga onangizga qanday g'amxo'rlik qilishingiz va yordam berishingiz haqida nimalarni aytib berar edingiz?

Bolalarning javoblari.

Bilim beruvchi xarakterdagi kitoblar, masalan, mehnat haqidagi kitoblar muqaddima suhbatida va o'qigandan keyinga suhbatni boshqacha mazmunda bo'lishini talab etadi. Mehnat haqidagi kitob bolalar uchun kishilarning kasblari, mashinalar va mehnat qurollari haqidagi bilimlar manbai bo'lib xizmat etadi.

Xulosa qilib aytganda, bilim beruvchi kitoblar har xil bilimlar manbai bo'libgina qolmay, balki kishilarning mehnatiga hurmat, tabiatga nisbatan muhabbat va hokazo fazilatlar tarbiyalash vositasi bo'lib ham xizmat qiladi. Shuning uchun kitob bilan ishlashni shunday yo'lga qo'yish g'oyat muhimki, u bolalarda yuksak axloqiy sifatlarni tarbiyalash imkonini berishi kerak.

#### ADABIYOTLAR

1. M. Asqarova “Kichik yoshdagi bolalar nutqini o'stirish”T,-“ O'zbekiston” 2001y.
2. F.O'rinova. Kichik maktab yoshi o'quvchilarida nutq madaniyatini shakllantirish.

- Monografiya. Toshkent.2013 yil.
3. D.R. Babayeva “Nutq o‘stirish nazariyasi va metodikasi” . Darslik TDPU . 2018yil.
  4. Uljaevna, U. F. (2020). Didactic games in preschool educational system. Проблемы современной науки и образования, (4-2 (149)), 27-29.
  5. Uljaevna, U. F., & Shavkatovna, S. R. (2021). Development and education of preschool children. ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL, 11(2), 326-329.
  6. Uljaevna, U. F., & Shavkatovna, S. R. DOI: 10.5958/2249-7137.2021. 00358. X “Development and education of preschool children” ACADEMICIA. An International Multidisciplinary Research Journal.(Double Blind Refereed & Peer Reviewed Journal). ISSN, 2249-7137.
  7. O‘rinova, F. (2019). REPORT ON PROBLEMS IN THE PRE-SCHOOLS OF ORGANIZATIONAL PREVENTIVE CENTERS. Scientific Bulletin of Namangan State University, 1(11), 311-315.